

ucheb.zavedeny / T.S. Panina, L.N. Vavilova; pod red. T.S. Paninoy – Moskva: Izdatel'skiy tsentr «Akademiya», 2006. – 176 s.)

3. Яфарова М. П. Применение технологии критического мышления на уроках английского языка как способ повышения мотивации / М. П. Яфарова. Молодой ученый. –2017.– №42(176).– С.222-229. (Yafarova M. P. Primenenie texnologii kriticheskogo mishleniya na urokax angliyskogo yazika kak sposob povisheniya motivatsii / M. P. Yafarova. Molodoy ucheniy. –2017.– №42(176).– S.222-229).

4. Crawford A. Teaching and Learning Strategies for the Thinking Classroom. New York: International Association for Debate Education, 2005., p.58-61

## **BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVChILARINING INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI**

*Shohistaxon TOJIBOYEVA  
Qo'qon DPI tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishga oid ayrim fikr-mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishga oid xorijiy va milliy tajribalar hususida ham fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Bo'lajak o'qituvchi, kompetentlik, informatsion-analitik kompetentlik, didaktik imkoniyatlar, ta'limiy yondashuvlar, bilim, rivojlantirish, ta'lim oluvchi.

**Kirish.** Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish, ingliz tili ta'limiga yangi texnologik yondashuv imkoniyatlarini qo'llash, qadriyatlar, an'analar asosida hamda ularning didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish ta'lim islohotlarining asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Shu yo'nalishda ingliz tilini o'qitishda bugungi kundagi yangiliklar, o'zgarishlar va qonunlar, zamonaviy manbalar, erishilayotgan natijalar, bo'lib o'tayotgan eng so'nggi voqeliklar bilan bir qatorda filologik manbalardan foydalanishning pedagogik texnologiyalarini yaratish dolzarb pedagogik muammolar sirasiga kiradi. Yangi O'zbekistonda ham ta'limga bo'lgan munosabatning o'zgarishi va axborot texnologiyalarining keng joriy qilinishi natijasida aralash ta'lim muhitining shakllanishi jarayoni yuz bermoqda. Bunday

sharoitda o‘qitish auditoriyalardan chiqib, global ko‘lam kasb etishi kuzatilamoqda. Bu esa bo‘lajak kadrlarga bilim olish imkonipyati va qulayligini taqdim qilish bilan birga informatsion madaniyatni shakllantirish, analistik fikrlash qobiliyatini o‘stirishni ham yuzaga chiqarmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Informatsion-analitik kompetentlikning yuqoridagi yo‘nalishlaridagi farqlarga qaramasdan, pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talabalar tomonidan informatsion-analitik ma’lumotlarni passiv idrok etish samarasizdir. Binobarin, ta’lim jarayoniga media resurslarni joriy etishda asosiy pedagogik vazifa intellektual harakatsizlikni istisno qiluvchi tanqidiy fikrlash, ijodiy vazifalar tizimi orqali media axborotni samarali idrok etishni rivojlantirishdan iborat. Biz N.A. Sidorinaning bunday yondashuv multimedia vositalarining jozibadorligi bilan nafaqat ta’lim motivatsiyasini oshiradi, balki talabalarning informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi, degan fikriga qo‘shilamiz

A. Yu. Belogurova, I.A. Zimnyaya, V.A. Slastenin, E.I. Isaeva, Z.K. Kargieva, A.V. Rayseva, O.A. Gavrilyuk, V.I. Slobodchikova, O.P. Kutkina, I.V. Grigorieva, N.V. Xlizova va boshqalarning tadqiqotlari asosida, talaba shaxsining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus tashkil etiladigan pedagogik sharoitlar zarur deb hisoblaymiz. Bu jarayon, I.V. Grigorevaning fikricha, oliy o‘quv yurtining o‘quv jarayoniga quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatli bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar.** Oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari zamonaviy oliy ta’limni axborotlashtirish jarayonining jadallashuvi bilan tavsiflanadi, bu bir tomonidan, media resurslaridan foydalanish va o‘quv jarayoniga informatsion-analitik texnologiyalarni joriy etish uchun yangi istiqbollarni ochadi, ikkinchi tomonidan, pedagogik nazariya va amaliyotni talabalarga jumladan bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilariga ta’lim berishning yangi usullarini izlashga majbur qiladi, o‘qitishni maksimal darajada individuallashtirish bilan talaba shaxsining kasbiy komponentini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Ko‘rinib turibdiki, informatsion-analitik kompetentlik barcha turdagি media (bosma va grafik, ovozli, ekranli va boshqalar) va turli xil media madaniy va axborot texnologiyalari bilan bog‘liq. Bu jamiyatda ommaviy kommunikatsiyalardan qanday foydalanilishini tushunish imkonini beradi, yosh mutaxassislarni axborotga boy jamiyatda hayotga tayyorlash uchun mo‘ljallangan va boshqa odamlar bilan muloqot jarayonida mediadan foydalanish qobiliyatini egallashni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, oliy o‘quv yurtining bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisini mediata’limning asosiy vazifasi dinamik dunyoda erkin amalga oshiriladigan ma’lumot o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantiradigan, o‘zini o‘zi mustaqil ta‘minlovchi shaxsning informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratligi ayon bo‘ladi. Biz I.V. Grigorevaning, bunday shaxsni rivojlantirish muammo si kasbiy ta’lim doirasidan ancha uzoqda va insonning uzluksiz ijtimoiylashuvining eng muhim jarayonlari sodir bo‘ladigan axborot muhiti bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish vazifasi bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda, degan fikriga qo‘shilamiz.

Informatsion-analitik kompetentlikni tahlil qilib, shunday xulosaga kelamizki, oliy ta’limning boshqa an’anaviy ta’lim variantlari bilan qiyoslab bo‘lmaydigan taklif etiladigan turli yo‘nalishlari, vositalari va ta’lim imkoniyatlarini kengaytiruvchi mediata’limning asosiy maqsadi - talabalar ongida zamonaviy multimedia makonida voqelikning adekvat manzarasini rivojlanishdir.

Bo‘lajak kadrlar (xorijiy til o‘qituvchilar) media xabarlardan oladigan ma’lumotlar, ta’lim ma’lumotlaridan farqli o‘laroq, hissiy tus berish va ma’lumotlarning dolzarbligi kabi jozibali xususiyatlarga ega. Shunday qilib, o‘qituvchi media bilan raqobatga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishi kerak, u avtoritarlikdan voz kechishi, iste’mol qilingan ma’lumotlardan, o‘qituvchining o‘zi nima organiga nisbatan talaba aniq nimani olgani bilan ko‘proq qiziqishi, talabalarning faoliyatini baholash mezon va usullarni qayta ko‘rib chiqishi kerak.

Bilimlar inflyatsiyasi holatini, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasida hisobga olgan holda, o‘qituvchi otmuning media-ta’lim maydoni kontentini, uni faol va zamonaviy

tendensiyalarga, shuningdek, talabalar ehtiyojlariga mos keladigan qilib modifikatsiyalash maqsadida ta’limga yo‘naltirilgan zamonaviy texnik vositalar va dasturiy ta’mnotin tahlil qilishi zarur

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, salbiy axborot ta’siridan himoya qilish, shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash muammolarini o‘rganayotgan mualliflarning ko‘rib chiqilgan ishlarida (L.V. Astaxova, G.V. Grachev, L. Masterman, L.M. Simeli, D.S. Sinitzin, E.A. Stolbnikova, A.V. Fedorov, R.M. Yusupov va boshqalar), shaxsning himoya vositalaridan biri aqliy faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ekanligini tushunish o‘z aksini topadi, uning natijasi - matnlardagi salbiy axborot ta’sirini mantiq, refleksiya, dialog, talqin, shaxsning himoya munosabatlarini shakllantiradigan axborot ta’sirining tasniflarini bilishga tayanish orqali aniqlashdir.

**Xulosa.** Shunday qilib, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini shakllantirish avvalo oliy o‘quv yurtining informatsion-ta’lim maydoni axborot jamiyatining zamonaviy sharoitida kasbiy ta’lim amalgalashdir. Talaba shaxsining informatsion-analitik kompetentligi rivojlanish darajalarining individual tizimini tahlil qilib, informatsion-madaniy faoliyat va informatsiyalashgan makondagi uning o‘zaro munosabat sub’ekti sifatidagi faol rolini ta’kidlab, axborotni idrok etish darajasini yanada ajratishimiz mumkin. Natijada, talaba shaxsining informatsion-analitik kompetensiyasi yangi axborotlar sharoitlarida inson shaxsini rivojlantirish uchun dinamik dispozitsiya tizimi bo‘lib xizmat qiladi, bu esa zamonaviy axborot jamiyati talablariga javob beradigan oliy kasb maktabi bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisiining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishga olib keladi. Talaba shaxsining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asosini madaniyatlar muloqoti nazariyasi, media-ta’lim g‘oyalari, informatsion-analitik kompetensiyasining tarkibiy tizimi, informatsion-analitik kompetensiyasini darajali tashkil etish, shaxsga yo‘naltirilgan tushunchalar tashkil etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yuxati**

1. Григорьева И.В. Вовлечение студентов в активную медиадеятельность по созданию медиаобразовательного пространства педагогического вуза (из опыта работы) - Казань: Изд-во Казан. гос. ун-та, 2008. С. 264-270

2. Хлызова Н.Ю Медиаобразование как педагогическое понятие в отечественных и зарубежных педагогических исследованиях// Проблемы современного образования: Вестник ИГЛУ. Сер. педагогика и психология. — Иркутск: ИГЛУ, 2007

3. Сидорина Наталия Александровна. Социально-педагогическое сопровождение развития одаренности подростков в детском оздоровительном лагере: Дис....канд. пед. наук: 2006. – 226 с.

### **O'ZBEK TILI OLMOSHLARI TARIXI**

**Zuhro AZIMOVA**

*Samarqand davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti,*

**Annotatsiya.** Maqolada olmoshlarnig fonetik, semantik, leksik ma'nolari, son va kelishik kategoriyalari va ularning qadimgi turkiy til yodgorliklarida shakl va xususiyatlari, olmoshlarning gapdagi vazifasi o'r ganildi, qiyoslanib, misollar orqali tahlil qilindi. Har bir tilning tarixiy taraqqiyotida o'zgarishlar, avvalo, uning leksikasi, lug'at boyligiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tilida olmoshlarni davriy tadqiq qilish qadimgi yozma yodgorliklardagi shakllari bilan zamonaviy shakllarini qiyoslash, o'r ganayotgan mavzuimizning asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** qadimgi yozuvlar, moniy, uyg'ur, ko'k turk bitigi, qadimgi turkiy til yodgorliklarida olmoshlar va ularda kelishik, son kategoriyasi, kishilik, ko'rsatish, o'zlik olmoshlari, Irq bitigi, Qutadg'u bilig, Devonu lug'otit turk.

O'zbek tilining tarixiy grammatikasini o'r ganish o'zbek tilining grammatischeschee qurilishi taraqqiyoti uchun eng muhim vazifadir. Tarixiy grammatika til tarixi faninig bir qismidir. Qadimgi yodgorliklardan ma'lum bo'lishicha eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan ko'rsatish olmoshlarining bir guruhi turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida paydo bo'lgan. O'rxun-Enasoy va qadimgi uyg'ur tili yodgorliklarida ko'rsatish olmoshlaridan *ul* (*ol*), *bu* qo'llangan. XI-XII asrlarda oid yodgorliklarda esa ko'rsatish olmoshlarining *ush*, *ushbu oshul* shakllari ham qo'llangan. Masalan: *Köpy bärca yaxшии айур ушибу сөз.*